

**TABIY RESURS POTENSIALIDAN OQILONA FOYDALANISH VA  
BOSHQARISHNING IQTISODIY AHAMIYATI**

**Ashurov Shohruh Shuhratovich**

*Farg'ona davlat universiteti, 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** *Maqolada tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarishning prinsiplari va belgilari yoritilgan. Qolaversa, undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.*

**Kalit so'zlar.** *Tabiiy resurs, tiklanadigan energiya, "yashil iqtisodiyot", takror ishlab chiqarilmaydigan tabiiy resurslar, samarali boshqaruv.*

**ECONOMIC IMPORTANCE OF RATIONAL USE AND MANAGEMENT OF  
NATURAL RESOURCE POTENTIAL**

**Ashurov Shohruh Shuhratovich**

*Fergana State University, 2nd year graduate student*

**Abstract.** *The article describes the principles and signs of managing the rational use of natural resources. In addition, the possibilities of its use in Uzbekistan have been determined.*

**Keywords.** *Natural resources, renewable energy, "green economy", non-renewable natural resources, effective management.*

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish- bu tabiatga faol ta'sir ko'rsatish bilan birga keladigan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi davrida zamonaviy jamiyatning eng muhim muammolaridan biridir.

Qolaversa, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirishda "yashil iqtisodiyot"ning rivojlanishi yetakchi o'rin egallaydi. Asosan, 2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasida mamlakatimizni uzoq muddatli istiqbolda jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishining ustuvor yo'nalishi sifatida cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslar sharoitida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish vazifalarini hal etish ko'zda tutilgan. Ushbu strategik maqsadga erishish uchun amaliyotga qo'llanilayotgan texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish yalpi ichki mahsulot birligiga sarflanayotgan issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilarini 2030 yilda 2010 yilga nisbatan 10 foizga kamaytirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini yuz foiz zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan

foydalanishga o'tkazish, ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarishga o'tish, elektr transportini jadal sur'atlarda rivojlantirish vazifalarini hal etish lozimdir. Tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanilmaslik natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar o'z ekologik tizimini, biologik xilma-xilligi va iqlimini yaxshilash uchun har yili 70-100 mlrd. dollardan kam bo'lmagan miqdorda investitsiya kiritishlari zarurligini taqozo etadi.. Rivojlanayotgan mamlakatlarning investitsion salohiyati past ekanligini e'tiborga olgan holda jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar ushbu mintaqalar uchun strategik muhim bo'lgan er osti boyliklarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalariga yo'naltirilmogda. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy qonunchiligi xo'jalik sub'ektlarining ekologik yoki ijtimoiy javobgarligini ta'minlamaydi. Tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilishdagi ushbu agressiv yondashuv jahon sivilizatsiya uchun jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Mavjud sharoitda iqtisodiyot va ijtimoiy sohani tiklanadigan energiya resurslaridan foydalanishga o'tkazish mazkur muammoni hal etishning optimal echimi hisoblanadi. Jahon mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energetika sektoridan foydalanish borasida etarli salohiyat mavjud. IRENA ma'lumotlariga ko'ra, Kanada va AQSH tiklanadigan energiya resurslaridan mos ravishda 96 636 va 214 766 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlar yaratdi. Rossiya o'zining jiddiy salohiyati va rang-barang iqlimi bilan tiklanadigan energiya resurslaridan yiliga 51 747 MVt energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yarata oldi. Braziliya va Xitoy qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan mutanosib ravishda yiliga 122 951 va 545 206 MVt energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarini ishga tushirdi.

SHu bilan birga, Insonning xo'jalik faoliyati natijasida dunyoda yirik ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Dunyo bo'yicha XX asrning 50-yillaridan boshlab, energiya ishlab chiqarishning keskin ortishi munosabati bilan atmosferaga katta miqdorda chiqindilar chiqarila boshlandi. Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga 5 mlrd. tonnani tashkil qildi. Bu miqdor yil sayin orta boshladi. Bu esa Erdagi o'rtacha harorat 1890-yildagi 14,5°C dan 1980-yilda 15,2°C ga, ya'ni 0,7 darajaga ortishiga olib keldi. Mazkur ko'rsatkich yil sayin ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa «issiqxona samarasi»ning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Olimlarning fikricha, «issiqxona samarasi»ni vujudga keltiruvchi gazlarning hozirgi ortish sur'ati saqlanib qolsa, har 10 yilda harorat 0,2—0,5 darajaga ortib boradi. YUqoridagi ma'lumotlar esa, tabiatga, juda katta zarar keltirishi muqarraligidan dalolat beradi. Asosan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarish yuqoridagi tabiatga keltiruvchi zararlarni oldini olishga qaratiladi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarish- bu insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tayyor bo'lmagan tabiiy resurs potensialidagi keskin o'zgarishlarga olib kelmaydigan va tabiiy muhitda inson salomatligiga zarar etkazadigan yoki uning hayotiga tahdid soladigan chuqur o'zgarishlarga olib kelmaydigan yuqori samarali boshqaruvdir. Tabiatdan va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish faoliyati tizimi

rivojlanayotgan iqtisodiyotning istiqbolli manfaatlarini va odamlar salomatligini saqlashni hisobga olgan holda, tabiiy resurslar va sharoitlardan tejamkor foydalanishni va ularni qayta ishlab chiqarishning eng samarali usulini ta'minlashga qaratilgan. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarish - bu insonning atrof-muhitga doimiy ta'siri, bu erda u tabiatni muhofaza qilish va o'z faoliyati davomida nohush oqibatlardan himoya qilish asosida tabiat bilan munosabatlarni boshqarishni bildiradi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish boshqarishning asosiy prinsipi - bu iqtisodiyotni iqtisodiy ixtisoslashtirish va tashkil etish, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi hududning tabiiy resurslariga (potensialiga), ekotizimlarning resurslarni qayta tiklash va atrof-muhitni tiklash funksiyalariga, ularning tabiiy qobiliyatiga mos kelishi va antropogen ta'sirlarga bardosh berishidan iboratdir. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarishning zaruriy elementlari quyidagilardan tashkil topadi: resurslar turlarini iste'mol qilishning optimal rejimlari va ulardan kompleks foydalanish; resurslarni yangilash tezligi va hajmini hisobga olish; resurslarni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni boshqarish; foydalanilayotgan landshaft (ekotizim) sifatini saqlash; tabiiy resursni olib qo'yishning salbiy oqibatlarini blokirovka qilish va bartaraf etish; ekotizimlarning tabiiy ishlashi va dinamikasini hisobga olgan holda eng tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Shu bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarishning quyidagi usullarini ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi: - tabiiy resurslarni inventarizatsiya qilish va inventarlarini yaratish; -texnologik jarayonlarning ekologizatsiyasidir. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish boshqarishning belgilari: -tabiiy resurslarni qayta tiklash va qayta ishlab chiqarish; - er, suv, hayvonlar va o'simlik dunyosini saqlash; - minerallarni yumshoq qazib olish va zararsiz qayta ishlash; -odamlar, hayvonlar va o'simliklar hayoti uchun tabiiy muhitni saqlash; -tabiiy tizimning ekologik muvozanatini saqlashdir.

Shu asosda tabiatni oqilona boshqarish ekologiya qonuniyatlarini saqlash, mavjud resurslardan foydalanish, saqlash va ko'paytirishda ratsionalizatsiya asosida butun tabiiy tizimning o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Tabiatdan foydalanishning mohiyati turli xil tabiiy tizimlarning o'zaro sintezining birlamchi qonuniyatlariga asoslanadi. SHunday qilib, tabiatni oqilona boshqarishda biotizimni tahlil qilish, uni ehtiyotkorlik bilan ekspluatsiya qilish, muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va inson salomatligini saqlashning nafaqat hozirgi, balki kelajakdagi manfaatlarini ham hisobga olgan holda tushuniladi. Qolaversa, iqtisodiyotda chiqindisiz ishlab chiqarishni ham keng joriy qilish ham iqtisodiyotga, ham tabiatga juda katta foyda keltiradi. Chiqindisiz ishlab chiqarish-bu o'zaro bog'liqlik va izolyatsiyalash tamoyillariga asoslangan resurslar davrlarini shunday tashkil etish bo'lib, bunda sanoatning ayrim tarmoqlari chiqindilari boshqalar uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi, bu esa ulardan to'liq foydalanishni ta'minlaydi. Biroq, sanoatning aksariyat tarmoqlarida ma'lum chiqindilarning

shakllanishi muqarrar. Haqiqiy maqsad - chiqindilardan maksimal darajada foydalanish bilan tavsiflangan kam chiqindili ishlab chiqarishga o'tishdir. Bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammosini hal etishga ham katta yordam beradi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammosi juda keng va murakkabdir. Shuni esda tutish kerakki, tabiatdagi hamma narsa bir-biri bilan chambarchas bog'liq va uning tarkibiy qismlaridan hech biri bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lolmaydi. Ko'p asrlik iqtisodiy faoliyat davomida etkazilgan zararni jamiyat global ekologik vaziyat muammolarini hal qilishga ongli yondashgan taqdirdagina tuzatish mumkin. Bu esa shaxs, davlat va jahon hamjamiyatining juda muhim vazifasidir.

Bundan tashqari, har qanday biologik mavzuni saqlashdan oldin, butun agrobiologik tizimni chuqur o'rganish, bilimlarni egallash va uning mavjudligining mohiyatini tushunish kerak. Tabiat va uning qonuniyatlarini bilish orqaligina inson uning barcha ne'matlari va resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, odamlarning kelajak avlodi uchun ko'paytirish va saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### **REFERENCES:**

1. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo`nalishida ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
2. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёш аҳолини ўқитиш ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
3. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери – истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами. Андижон*, 1(7), 106-109.
4. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК. г.Москва*, 1(9), 23-25.
5. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона*, 1(6), 124-127.
6. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг беқиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси*, 1(1), 44-47.

7. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 48-52.
8. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).
9. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
10. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 175-180.
11. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум*, 10, 89.
12. Mannopova, M. S. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
13. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ-ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
14. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje*, 29, 117-120.
15. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
16. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 1126-1129.
17. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
18. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.

19. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
20. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
21. Sultonbekovna, M. M., & Shuxratovich, A. S. (2023). O 'ZBEKISTON QISHLOQ XO 'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 39-45.
22. Sultonbekovna, M. M. (2023). OZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 25-31.
23. Sultonbekovna, M. M., & Esonovna, A. S. (2023). O 'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 58-64.
24. Sultonbekovna, M. M. (2023). MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERI KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Journal of new century innovations*, 23(3), 18-24.
25. Д.А.Чилматова, А.А Орипов. Хизмат кўрсатиш корхоналарида харажатларни таннархга олиб бориш усуллари. “Минтақа иқтисодийтини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари” Халқаро конференция материаллари. 2020 й.
26. Чилматова, Д. А. (2020). Интеграционный процесс между странами Центральной Азии. *Образование и наука в России и за рубежом*, (3), 67-68.
27. D.A.Chilmatova. Assessment of the effectiveness of financing investment activities in the economy of the region. *GOSPODARKA I INNOWACJE Economy and Innovation* ISSN: 2545-0573 Volume: 29 | 2022
28. D.A.Chilmatova. Transition to International Financial Reporting Standards. *American journal of economics and business management*. ISSN: 2576-5973 Vol. 5, No.11,2022
29. D.A.Chilmatova. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишни жадаллаштириш. *Scientific Progress* Volume 3 | ISSUE 2 | 2022 ISSN: 2181-1601 552-
30. D.A.Chilmatova. Minimum standards of remuneration for labor and its reflection in accounting in Uzbekistan. *Образование и наука ва России за ребажом. Международный научный журнал*. №16 2019. Vol. 64
31. Д.А.Чилматова. Особенности Перевода Финансовой Отчетности В Международные Стандарты. Финансово-правовые и инновационные аспекты инвестирования экономики региона. Сборник материалов международной

научно-практической конференции. Москва 27.05.2020. 314-стр ISBN 978-5-4365-5855-4/

32. Д.А.Чилматова. Приоритетная задача переход на международные финансовой отчетности (МСФО). Актуальные научные исследования в современном мире. 2(70) Стр.175-178 ФЛП "Кравченко Я.О." 2/2021